

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*O'D. K 330.3 : 336 (575.1)*

*Qo'shyozma huquqida*

Qurbanov Bunyod Baxrom o'g'li

**Mavzu: Rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsion targetlash(O'zbekiston  
misolida)**

**70410402 — “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori”**

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

**Ilmiy rahbar: PhD., dotsent Sultonov Sh.**


**Toshkent – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Moliya”  
kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan.

15-sonli bayonnomma “22” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.

  
imzo 15.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar:

Sultonov Sh.

  
imzo 15.05.2023  
sana

Talaba:

Qurbanov.B.B

  
imzo 15.05.2023  
sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “12” may

No MKF-01/1 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Ushbu dissertatsiyada inflyatsion targetlash rejimining mazmun-mohiyati borasida fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimining istiqbollari borasida xulosalar keltirilgan.

Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotida inflyatsion targetlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Aytish lozimki, pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimida markaziy bank tomonidan inflyatsiyaning o'rta muddatli maqsadli darajasi e'lon qilinadi va pul-kredit instrumentlari ushbu inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichiga erishishga yo'naltiriladi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tish va uning ijobjiy samarasini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, davlat byudjeti defitsiti va davlat qarzining yuqoriligi sharoitida inflyatsiyani targetlash siyosatini amalga oshirish, rejimning samaradorligini ta'minlash maqsadida monetar siyosat vositalarining ta'sirchanligini oshirish va transmission mexanizmlarini rivojlantirish, Markaziy bankning zaif mustaqilligi sharoitida inflyatsiyani targetlash siyosatiga o'tish hamda makroiqtisodiy siyosatning muvofiqligini ta'minlash kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bugungi post-pandemik va geosiyosiy beqarorlik sharoitida narxlar barqarorligini ta'minlash va ikqisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratish borasida dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** targetlash, monetar siyosat, markaziy bank, inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi, bazaviy inflyatsiya, pul-kredit siyosati.

## ABSTRACT

In this dissertation, opinions on the essence of the inflation targeting regime are put forward. Also, conclusions are given regarding the prospects of the inflation targeting regime in Uzbekistan.

Today, the issue of inflation targeting is one of the most important issues in the economy of every country. It should be said that in the inflation targeting regime of the monetary policy, the central bank announces the medium-term target level of inflation, and monetary instruments are directed to achieve the target rate of this inflation.

In many countries of the world, scientific studies on the transition to the inflation targeting regime and ensuring its positive effect are ongoing. In particular, in the conditions of the state budget deficit and high state debt, implementing inflation targeting policy, increasing the effectiveness of monetary policy tools and developing transmission mechanisms in order to ensure the effectiveness of the regime, switching to inflation targeting policy in conditions of weak independence of the Central Bank, and ensuring the consistency of macroeconomic policy. special attention is paid to research. Despite this, in today's post-pandemic and geopolitical instability conditions, it is necessary to conduct large-scale scientific research by the world scientific community to ensure price stability and maintain economic growth rates and create conditions for long-term sustainable economic growth. is enough.

**Key words:** targeting, monetary policy, central bank, inflation, refinancing rate, core inflation, monetary policy.

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>10</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	12
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	14
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	14
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	15
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	15
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	15
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>17</b>
2.1.Kirish.....	17
2.2.Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	20
2.3 Mavzuga oid mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
<b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>25</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	25
3.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	25
3.3 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	25
3.4 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	26
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	26
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	27
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>29</b>
4.1. Inflyasiya xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar va uni bartaraf etish bo‘yicha xorij tajribasi.....	29
4.2. O‘zbekistonda inflyatsion targetlash amaliyotining tahlili.....	38
4.3.O‘zbekistonda inflyatsion targetlash siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	55

<b>V BOB. XULOSA.....</b>	60
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarining qisqacha ifodasi.....	60
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	61
5.3. Tadqiqot chekllovlarini va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	62
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	64

## I BOB. KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida inflyatsiya va uning shakllanishi bilan bog'liq jarayonlar, jahondagi geosiyosiy beqarorlik, ortiqcha talab, taklif hajmidagi deformatsiya va ayniqsa COVID-19 pandemiyasi va uning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan faol iqtisodiy siyosat tufayli tezlashdi. Shuningdek, birgina «2022 yil aprel oyida iste'mol narxlari indeksida aks ettirilgan o'rtacha global inflyatsiya darajasi 7,8 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 9,4 foizga oshdi va bu 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davridan keyingi eng yuqori darajani qayd etdi. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 6,9 foizni tashkil etib, 1982 yildan keyingi eng yuqori darajaga yetdi». Bunday vaziyatda Markaziy bank va hukumatlardan narxlar barqarorligini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi makroiqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tish va uning ijobjiy samarasini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, davlat byudjeti defitsiti va davlat qarzining yuqoriligi sharoitida inflyatsiyani targetlash siyosatini amalga oshirish, rejimning samaradorligini ta'minlash maqsadida monetar siyosat vositalarining ta'sirchanligini oshirish va transmission mexanizmlarini rivojlanirish, Markaziy bankning zaif mustaqilligi sharoitida inflyatsiyani targetlash siyosatiga o'tish hamda makroiqtisodiy siyosatning muvofiqligini ta'minlash kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bugungi post-pandemik va geosiyosiy beqarorlik sharoitida narxlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlar yaratish borasida dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Yangi O'zbekistan kontseptsiyasi doirasida «Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023 yilgacha bosqichma-bosqich 5